

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.10.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI**

NURALIYEVA NODIRA ABDUKAMILOVNA

**O‘SIMLIKLARGA VEGETATSIYA DAVRIDA ISHLOV BERUVCHI
ELEKTROMEXANIK QURILMANING PARAMETRLARINI ASOSLASH
(SUSPENZIYA SEPISH MISOLIDA)**

05.05.07 – Qishloq xo‘jaligida elektr texnologiyalar va elektr uskunalari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT–2022

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Nuraliyeva Nodira Abdukamilovna

“O'simliklarga vegetatsiya davrida ishlov beruvchi elektromexanik qurilmaning
parametrlarini asoslash” (suspenziya sepish
misolida)..... 3

Нуралиева Нодира Абдукамиловна

“Обоснования параметров электромеханического устройства при
обработке растений в период вегетации” (на примере распыления
суспензии)..... 17

Nuralieva Nodira Abdukamilovna

"Substantiation of the parameters of an electromechanical device during the
processing of plants during the growing season" (on the example of the
introduction of a suspension)..... 31

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 34

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.10.01 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI**

NURALIYEVA NODIRA ABDUKAMILOVNA

**O‘SIMLIKLARGA VEGETATSIYA DAVRIDA ISHLOV BERUVCHI
ELEKTROMEXANIK QURILMANING PARAMETRLARINI ASOSLASH
(SUSPENZIYA SEPISH MISOLIDA)**

05.05.07 – Qishloq xo‘jaligida elektr texnologiyalar va elektr uskunalari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT–2022

The theme of doctoral (PhD) dissertation was registered with the number of B2021.4.PhD/T2396 the Supreme Commission of the Cabinet of Ministers of the republic of Uzbekistan.

The dissertation was performed at "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers" National Research University

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, Russian, english (resume)) on the website of the Scientific council (www.tiame.uz) and at the Information and educational portal «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Scientific consultant:	Bokiev Abdjolol Abdulhamitovich candidate of technical sciences, sciences, s.s.c
Official opponents:	Muxammadiev Ashiraf Doctor of technical science, professor Samatov Ne'matjon Axmatovich Candidate of technical science, sciences, s.s.c
Leading organization:	Certification and Testing Center of Agricultural Machinery and Technologies under the Ministry of Agriculture of the Republic of Uzbekistan

The defense of the dissertation will be held at 10⁰⁰ on 16th february 2022 ear at the scientific council meeting DSc.03/30.12.2019.T.10.01 at the "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers", National Research University (at the address: 39, Kari Niyazi street, Tashkent city, 100000. Tel: (+99871) 237-09-45; Fax: (+99871) 237-38-79, e-mail: admin@tiame.uz).

The dissertation is available at the Information-resource center of the "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers" National Research University (registration number 105). Address: 39, Kari Niyazi street, Tashkent city, 100000. Tel: (+99871) 237-09-45; Fax: (+99871) 237-38-79, e-mail: admin@tiame.uz.

Abstract of the dissertation is posted 6 february 2022,
(Mailing Protocol No 63 dated 2 february 2022)



B.S.Mirzayev
Chairman of Scientific Council awarding Scientific degrees, doctor of technical sciences, professor

U.T.Quziyev
Scientific secretary of Scientific Council awarding scientific degrees, (PhD), sciences, s.s.c.

Kh.M.Muratov
Chairman of Scientific seminar under the Scientific Council awarding scientific degrees, doctor of technical sciences, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi))

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda hozirda qishloq xo‘jaligiga elektr traktorlar va boshqa resurstejamkor elektrotexnologik jihozlarni jadal joriy etish yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. “Dunyo miqyosida qishloq xo‘jalik texnikalari ishlab chiqaruvchi taniqli kompaniyalarni traktorlarni elektr yuritmaga o‘tkazish bo‘yicha tadqiqotlarini hisobga olsak”¹, energiyasamaradorlik nuqtai nazaridan ushbu tadqiqotlar natijasida yaratilgan elektr yuritmalı traktorlarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan mobil texnika vositalarining ko‘pchiligi organik yonilg‘ida ishlaydi, natijada amalga oshirilayotgan agrotexnik tadbirlarning energiya samaradorligi past bo‘lmoqda. Shu jihatdan yonilg‘i-moylash materiallarini ishlab chiqarish, saqlash va yetkazib berish sarf-xarajatlari yuqoriligidan kelib chiqib, qishloq xo‘jaligida elektr yuritmalı traktorlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda qayta tiklanadigan energiya manbalari (quyosh, shamol, gidravlik va boshqalar) asosidagi elektr stansiyalarini keng miqyosda joriy etgan holda, elektr traktorlar yaratishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, dunyo aholisi uchun oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning yangi texnologiyalari yaratilayotganligiga qaramay, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi yana uzoq vaqt davomida oziq-ovqat yetishtirishning asosiy bazasi bo‘lib qolishi va bu maqsadlar uchun ko‘p miqdorda qishloq xo‘jalik texnika vositalari talab etilishini nazarda tutgan holda, yuqori darajadagi ekologik talablarga javob beradigan, agrotexnik tadbirlarni atrof-muhitga zarar yetkazmay, yuqori iqtisodiy samaradorlik bilan amalga oshiradigan energiyatejamkor mobil texnika vositalarini ishlab chiqish hamda ularning parametrlari va ish rejimlarini asoslashga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishda mehnat hamda energiya resurslaridan samarali foydalanish, yetishtirilgan mahsulotlarni yig‘ishtirish va qayta ishlashda xom ash‘yo va energiya isroflarini kamaytirish imkonini beradigan resurstejamkor texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida, jumladan, “...qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish...”² bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, O‘zbekiston respublikasida qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash, xususan yangi energiyatejamkor texnika vositalarini yaratish ishlarini tizimli rivojlantirish, paxta, g‘alla, bog‘dorchilik, meva-sabzavotchilik va chorvachilik yo‘nalishida texnika turlarini ishlab chiqarishni kengaytirish va umumiy ishlab chiqarish hajmini oshirish, qishloq xo‘jaligi uchun kichik mexanizatsiya vositalarini ishlab chiqarishni tashkil etish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ <http://www.fao.org/faostat/#>; <https://www.zerno-ua.com>.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni va 2017 yil 7 iyuldagi PQ-3117-son “Qishloq xo‘jaligi mashinasozligi sohasida ilmiy-texnikaviy bazani yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”, 2019 yil 31 iyuldagi PQ-4410-son “Qishloq xo‘jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta‘minlashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020 yil 11 maydagi PQ-4709-son “Respublika hududlarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda ushbu soxa bilan bog‘liq boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining II “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qishloq xo‘jalik mobil texnika vositalarini elektr yuritmaga o‘tkazish borasida tortuvchi yuritmadagi elektr motorlar bo‘yicha Yu.V.Petrenko, A.P.Tarasyan, V.V.Loxnin va I.A.Verbinenkov, T.Kenio va S.Nagamori, A.M.Musin, M.B.Leytman, Y.F. Arxishev, Qinglian Ren va boshqa qator olimlar tadqiqotlar olib borishgan. O‘simliklarga purkab ishlov berish texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha turli yillarda ko‘plab mahalliy, xorijiy olimlar va mutaxassislar, shu jumladan: A.A.Artyushin, E.A.Barishev, I.F.Borodin, I.N.Veletskiy, A.Ershov va boshqa qator olimlar tadqiqotlar olib borishgan.

Mamlakatimizda elektr texnologiyalari va uskunalarini yaratish, ularni energetik takomillashtirish hamda mobil texnika vositalarini elektr yuritmaga o‘tkazish kabi tadqiqotlar A.Radjabov, A.Muxammadiyev, E.V.Stativkin, X.M.Murotov, A.Vohidov, Z.S.Iskandarov, O.T.Axmedov, A.Boqiyev va boshqalar tomonidan olib borilgan. Ular olib borgan tadqiqotlar natijalari asosida ishlab chiqilgan usullar va qurilmalar qishloq xo‘jaligida muayyan ijobiy natijalarga erishish imkonini yaratgan.

Mazkur tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan mashinalar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida muayyan darajada ijobiy natijalarga erishilgan holda qo‘llanilib kelinayotgan bo‘lsada, ammo bu tadqiqotlarda o‘simliklarga ishlov beruvchi elektr yuritmali mobil texnika vositalari masalalari o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining QXA-3-030-2015 “O‘zbekiston respublikasi agrosanoat majmuida elektr energiyasi iste‘moli me‘yorlarini takomillashtirish” (2015-2017) mavzusidagi amaliy va VA-QXF-2-005 “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish texnologiyalarini rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslari (qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish misolida)” (2017-2020) mavzusidagi fundamental loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘simliklarga ishlov berish bo‘yicha agrotexnik tadbirlarni bajarishga mo‘ljallangan mobil elektromexanik qurilmaning energetik parametrlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

elektr yuritmalı mobil texnika vositalariga oid ilmiy va texnikaviy ma‘lumotlar hamda shu yo‘nalishda ilgari bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahliliy tadqiq etish;

mobil elektromexanik qurilma yordamida o‘simliklarga purkab ishlov berishda quyosh panelidan ta‘minlanuvchi elektr nasosning quvvatini asoslash;

mobil elektromexanik qurilmaning konstruksiyasini (fizik model darajasida) ishlab chiqish;

mobil elektromexanik qurilma ishchi qismlarining maqbul parametrlari va ish rejimlarini nazariy va tajribaviy asoslash;

mobil elektromexanik qurilmaning xo‘jalik sinovlarini o‘tkazish va uning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini baholash.

Tadqiqot ob‘ekti - O‘zbekiston respublikasi sharoitida o‘simliklarga ishlov berish jarayonlari, o‘simliklarga ishlov beruvchi elektromexanik qurilma.

Tadqiqot predmeti ekspluatatsion-texnik tavsiflar (elektr parametrlari, samaradorlik, massa, gabarit va iqtisodiy ko‘rsatkichlar) va agrotexnik tadbirlarning turlariga qarab mobil elektromexanik qurilma ish samaradorligining o‘zgarish qonuniyatlari, shartlari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida mobil elektromexanik qurilmani ekspluatatsion tahliliga tizimli yondashuv, nazariy elektrotexnika va matematik statistikaning asosiy qoidalari, o‘simliklarga ishlov berishda agrotexnik jarayonlarni modellashtirish nazariyasi va qoidalaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

muqobil energiya manbalaridan foydalanib bir zaryadda o‘simliklarga ishlov beriladigan maydonni hisobga olgan holda o‘simliklarga ishlov beruvchi kichik quvvatli elektr yuritmalı mobil elektromexanik qurilmaning energetik parametrlari asoslangan;

kichik quvvatli elektr yuritmalı mobil elektromexanik qurilmaning og‘irligi, purkagichning ishchi tezligi va elektr motor quvvatini hisobga olgan holda ko‘p omilli tajribalardan foydalanib matematik model olingan va uni yechish orqali mobil elektromexanik qurilmaning bir zaryadda o‘simliklarga maksimal ishlov berish maydonini ta‘minlaydigan maqbul parametrlari asoslangan;

muqobil energiya manbalaridan foydalangan holda kichik quvvatli elektr yuritmalı mobil elektromexanik qurilmaning tajriba-sanoat nusxasi ishlab chiqilgan.

kichik quvvatli elektr yuritmalı mobil elektromexanik qurilma ekspluatatsiyasida “Inson-elektr qurilma-muhit” tizimida xavfsizlikni ta‘minlash uslublari va joriy etish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mobil qishloq xo‘jaligi texnik vositalarining energiya samaradorligini oshirishga imkon beruvchi konstruktorlik ishlanmasi (foydali model darajasida) taklif etilgan;

mobil elektromexanik qurilmaning fizik modeli ishlab chiqilgan.

konstruktorlik hujjatlarini ishlab chiqish va bir paytning o'zida servis xizmatini tashkil etgan holda kichik seriyali ishlab chiqarish imkonini beruvchi kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

dissertatsiya ishi natijalari (fizik model laboratoriya stendi sifatida) tegishli mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlashda o'quv jarayonida qo'llaniladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarda qo'llanilgan zamonaviy usullar va o'lchash vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, o'simliklarga ishlov beruvchi mobil elektromexanik qurilmaning energetik parametrlarini asoslashda oliy matematika, nazariy elektrotexnikaning asosiy qoida va usullariga amal qilinganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining adekvatligi, bajarilgan tadqiqotlar va o'tkazilgan dala sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jalik mobil texnika vositalarini bosqichli tarzda elektr yuritmaga o'tkazish bo'yicha ilmiy asoslanganligi, mobil elektromexanik qurilma yordamida bir zaryadda suspenziya sepiladigan maqbul maydonni aniqlash imkonini beruvchi matematik model ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qishloq xo'jaligida agrotexnik tadbirlarni o'tkazishni elektr yuritmaligi mobil texnika vositalariga o'tkazish imkoniyati yaratilganligi, mobil elektromexanik qurilma yordamida suspenziya sepishda ishlov berish maydonini aniqlash imkonini beruvchi rejim va parametrlari aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'simliklarga vegetatsiya davrida ishlov beradigan mobil elektromexanik qurilmaning parametrlari va ish rejimlarini asoslash bo'yicha olingan natijalar asosida:

o'simliklarga suyuqlik bilan agrotexnik ishlov beruvchi elektromexanik qurilmaga dastlabki talablar va uning konstruksiyasini loyihalash uchun texnik topshiriq ishlab chiqilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2021 yil 15 dekabrda 02/023-5078-son ma'lumotnomasi). Natijada o'simliklarga vegetatsiya davrida ishlov beruvchi mobil elektromexanik qurilmaning konstruksiyasini ishlab chiqish imkoni yaratilgan.

purkagich bilan jihozlangan mobil elektromexanik qurilmaning tajriba nusxasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanidagi "Nuriev Madiyar" fermer xo'jaligida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2021 yil 15 dekabrda 02/023-5078-son ma'lumotnomasi). Natijada fermer xo'jaligi bo'yicha yonilg'i sotib olish, uni yetkazib berish uchun umumiy xarajatlarni 15-20% gacha kamaytirish imkonini bergan.

kichik quvvatli elektr yuritmaligi mobil elektromexanik qurilmaning sanoat nusxalarini ishlab chiqish va tayyorlash uchun loyiha-konstruktorlik hujjatlari (dastlabki talablar, texnik topshiriq) "BMKB-Agromash" AJ da loyihalash jarayoniga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2021 yil 15 dekabrda 02/023-5078-son ma'lumotnomasi). Natijada asoslangan parametrlarga ega purkagich bilan jihozlangan kichik quvvatli elektr yuritmaligi mobil elektromexanik qurilmaning sanoat nusxasini ishlab chiqarish imkoniyati yaratilgan.


Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning nazariy va amaliy natijalari 11 ta ilmiy-amaliy anjumanlarida, jumladan, 7 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan 7 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 115 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Qishloq xo'jaligi ekinlariga vegetatsiya davrida qo'llaniladigan agrotexnik tadbirlar va ularni amalga oshiradigan texnik vositalar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida elektr traktorlarining yaratilish tarixi, O'zbekiston sharoitida o'simliklarga purkab ishlov berishda mavjud texnologiyalar o'rganilgan.



1-rasm. O'simliklarga purkab ishlov berishda TTZ-80-11 traktori va mobil elektromexanik qurilma quvvat samaradorligining ko'rsatkichlari

1-rasmda organik yonilg'ida ishlaydigan va elektr yuritmalni mobil texnika vositalarining g'allani suspenziyalashda umumiy quvvatlaridan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili natijalari keltirilgan.

Ularni takomillashtirish imkoniyatlari tahlili asosida mavzuga aloqador zamonaviy elektrotexnologik qurilma va jihozlarni joriy etishda xorijiy va respublikamizda nashr etilgan ilmiy ma'lumotlar tahlil qilingan. Jumladan, O'zbekistonda bu sohaning rivojlanish darajasi tahlili asosida energiyasamarador elektrotexnologik qurilma va jihozlarni joriy etish masalalari o'rganilgan.

Bunda O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida iste‘mol qilingan energiya resurslarini taqsimotining 2020 yil va yaqin istiqboldagi bashorat ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Bunda mobil texnika vositalarini elektr yuritmaga o‘tkazishning hozirgi holati, rivojlanish dinamikasi va istiqbollari, yaratish va qo‘llashdagi xorij tajribalari, respublikaning bu boradagi istiqbollariga asosiy e‘tibor qaratilgan.

2-rasmda O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida energiya resurslari taqsimotining 2020 yil va yaqin istiqboldagi bashorat ko‘rsatkichlari keltirilgan. Tahlillarga ko‘ra yaqin besh yillikda dizel yonilg‘isining umumiy iste‘moldagi ulushi 91 % dan 61 % gacha pasayishi va elektr energiya ulushi 0,02 % dan 15% gacha ortish bashoratlanadi.


Dissertatsiyaning **“Qishloq xo‘jaligi ekinlariga vegetatsiya davrida ishlov beruvchi elektromexanik qurilmaning konstruksiyasi va fizik modelini ishlab chiqish”** deb nomlangan ikkinchi bobida o‘simliklarga ishlov berishda elektr yuritmal mobil texnika vositasi konstruksiyasining texnik yechimlari va energetik parametrlariga qo‘yiladigan talablar o‘rganilib, tahlil qilingan.



2-rasm. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida iste‘mol qilinayotgan energiya resurslari taqsimoti

Elektr yuritmal texnika vositalarining texnik va iqtisodiy ko‘rsatkichlarini turli rusumdagi dvigatellar qo‘llangan holda tahlil qilinib, ularining markazlashgan va ko‘chma energiya manbalaridan taminlangandagi energiya samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘rganilgan.

3-rasmda mobil elektromexanik qurilmalarni dala sharoitida markazlashgan va qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida ishlaydigan mobil elektrstantsiyadan zaryadlashdagi energiyasamaradorlik ko‘rsatkichlari keltirilib, bunda mobil stansiya energiyasamaradorlik bo‘yicha maqbulligi xulosa qilingan.



3-rasm. Texnika vositalarini dala sharoitida zaryadlashning energiya samaradorlik ko'rsatkichlari

Hisoblangan quvvatdan sezilarli darajada yuqori quvvatli motor tanlash traktor yuritmasining FIKni pasayishiga olib keladi. Elektr yuritmal mobil texnika vositasi konstruksiyasining texnik yechimlari va energetik parametrlarining tahlili asosida fizik modeli tayyorlandi.

4-rasmda o'simliklarga ishlov berishda elektr yuritmal mobil texnika vositasining fizik modellari keltirilib, to'rt g'ildirakli variantining dala sinovlari aks ettirilgan.



Fizik modelning to'rt g'ildirakli varianti (tayyorlangan)




Fizik modelning uch g'ildirakli varianti (tayyorlanmoqda)

4-rasm. Elektr yuritmal mobil texnika vositasining fizik modellari


Dissertatsiyaning **“O'simliklarga vegetatsiya davrida ishlov beruvchi elektromexanik qurilmaning energetik parametrlarini nazariy va eksperimental asoslash”** deb nomlangan uchinchi bobida mobil texnika vositasi yordamida kichik hajmli purkagichlar bilan o'simliklarga ishlov berish agrotexnologiyalari, ishlov berish me'yorlari va muddatlari, ushbu agrotexnik tadbirlarni o'tkazishda ko'riladigan ehtiyot choralarini misolida o'rganilib, tahlil qilingan.

Kichik hajmli purkagichli elektr yuritmal mobil texnika vositalarining ish samaradorligini baholash me'zonlari o'rganilib, tahlil qilingan va ular asosida elektr yuritmal mobil texnika vositasiga ekspluatatsion talablar shakllantirilgan. Bunda qishloq xo'jaligida qo'llanilayotgan turli texnika vositalarining texnik ko'rsatkichlari va ulardan foydalanishdagi asosiy talablar nazarda tutilgan.



5-rasm. Massa va tezlikning bir zaryadda bosib o'tiladigan masofaga ta'siri

5-rasmda o'simliklarga ishlov beruvchi elektr yuritmal mobil texnika vositasining massasi va tezligining bir zaryadda bosib o'tiladigan masofaga ta'siri keltirilgan. Tahlillarga ko'ra 11 km/s tezlik energiya samaradorlik bo'yicha maqbul hisoblandi (g'allani suspenziyalashda).



6-rasm. Massa va motor quvvatining bir zaryadda bosib o'tiladigan masofaga ta'siri

6-rasmda o'simliklarga ishlov beruvchi elektr yuritmal mobil texnika vositasining massasi va motor quvvatining bir zaryadda bosib o'tiladigan masofaga ta'siri keltirilgan. Tahlillarga ko'ra 6 kVt quvvat energiyasamaradorlik bo'yicha maqbul hisoblandi.

Dastlabki eksperimentlardan elektromexanik qurilmaning bir zaryadda ishlov bera oladigan maydon (S_{ishlov}) hajmiga ta'sir qiluvchi asosiy parametrlar sifatida quyidagilar olindi:

1. Texnika vositasining (ishchi eritma va AKB xisobiga) og'irligi G , kg;
2. Purkagichning ishchi tezligi, $V_{purk.}$, km/h;
3. Elektr motor quvvati - P , kVt.

Boks-Benken turidagi ikkinchi darajali eksperimentni rejalashtirish usulidan foydalanildi. Tajribalar davomida Boks-Benken rejasi spektrining har bir nuqtasida uchta tajriba o'tkazildi.

Tajribalarning tartibi sonlar jadvaliga muvofiq amalga oshirildi. Tegishli hisoblar bajarilib, elektromexanik qurilmaning o'simliklarga purkab ishlov berish jarayonini ifodalovchi matematik modeli ishlab chiqildi:

$$S = -0,0000027G^2 + 0,0125V^2 + 0,0218P^2 + 0,0001G - 0,335V - 0,0562P + 0,0000125GV + 0,000123GP + 0,0123VP + 3,212 \quad (1)$$

Maqbullashtiruvchi parameter sifatida elektromexanik qurilmaning bir zaryadda ishlov bera oladigan maydon hajmi qabul qilindi. Matematik modelning optimal qiymatini topish uchun PascalABC kompyuter dasturidan foydalandik. Tadqiqotlar natijasida mobil elektromexanik qurilmaning bir zaryadda ishlov bera oladigan maydonning maqbul hajmini ta'minlovchi quyidagi parametrlari aniqlandi: texnika vositasining (ishchi eritma va AKB hisobiga) og'irligi 420 kg, purkagichning ishchi tezligi 11 km/h, elektr motor quvvati 5,8 kVt. Ushbu parametrlarda bir zaryadda ishlov bera oladigan maydon yuzasi 2,46 ga ni tashkil etadi

Mobil elektromexanik qurilmaning boshqaruv elektr sxemalarini ishlab chiqishda asosan quvvatlar mosligi, xavfsizlik va ishonchlilik kabi ko'rsatkichlarga asosiy e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiyaning "**O'simliklarga vegetatsiya davrida ishlov beruvchi mobil elektromexanik qurilmani agrotexnik va iqtisodiy baholash**" deb nomlangan to'rtinchi bobida o'simliklarga purkab ishlov berish bo'yicha eksperimentlar o'tkazilgan, mobil texnika vositasining fizik modeli yordamida dala tajribalarini o'tkazish uslubiyatlari asosida va tegishli nazorat-o'lchov asboblaridan foydalanilgan holda o'tkazilgan tajribalar natijalari tahlili keltirilgan.

Dala tajribalari g'alla maydonlarida, g'allaning ikkinchi oziqlantirilishida quyidagi agrotexnik me'yorlarga amal qilgan holda o'tkazildi.

1-jadval

G'allaning ikkinchi oziqlantirilishida agrotexnik me'yorlar

Ishchi suyuqlik me'yori, l/ga	Purkagich tezligi, km/h	Me'yorlovchi jikler diametri, mm	Purkagichdan chiqayotgan ishchi suyuqlik sarfi, l/min
12	11	0.7	0.24
24	8	1.0	0.48
46	4	1.0	0.48
90	4	1.5	0.9
180	2	1.5	0.9

O'simliklarga purkab ishlov berishda mobil elektromexanik qurilmaning massasi va tezligining, quvvati va massasini bog'liqligining bir zaryadda bosib o'tiladigan

masofaga ta'sirlari o'rganildi. O'simliklarga purkab ishlov berishda mavjud va taklif etilayotgan texnologiyaning taqqoslanishi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

O'simliklarga purkab ishlov berishda mavjud va taklif etilayotgan texnologiyaning taqqoslanishi

Mavjud texnologiya	Taklif etilayotgan texnologiya
1 gektar maydonga purkab ishlov berish tannarxi o'tacha 30 ming so'm atrofida.	Purkab ishlov berish tannarxi o'tacha 20 ming so'm.
Har gektariga sarflanadigan suv miqdori 600-800 litr.	Har gektariga sarflanadigan suv miqdori 200-300 litr. (aniq sepish xisobiga)
Traktorning umumiy og'irligi 3300 kg.	Elektr traktorning umumiy og'irligi 760 kg.
Ishchi suyuqlikning sochilish samaradorligi 60-70 %	Ishchi suyuqlikning sochilish samaradorligi 90-95 %
Yonilg'i-moylash materiallarini olis masofaga tashish va saqlash masalalarining mavjudligi.	Yonilg'i-moylash materiallariga extiyoj yo'q
Traktor va purkagich narxi: 330 mln. so'm + 28 mln.so'm=358 mln.so'm.	Elektr traktor va purkagich narxi: 35 mln. so'm + 14 mln.so'm=49 mln.so'm. (2 x 49 = 98 mln.so'm)

1. Hozirda mavjud texnologiyaga nisbatan taklif etilayotgan texnologiya qariyb 2,5 barobar arzon.
2. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida ishlaydi.
3. Yangi texnologiyaga qilingan harajatlar samarali ekspluatatsiya holatida 3 yilda o'zini qoplaydi.

Ushbu elektr yuritmal mobil texnika vositasi yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari tomonidan investitsiyalanishi imkoniyatlari mavjud. Ishlab chiqilgan elektr yuritmal mobil texnika vositasi yordamida qishloq xo'jaligi ekinlariga purkab ishlov berish texnologiyalariga qo'shni davlatlarda ham extiyoj mavjud bo'lib, o'zaro foydali hamkorlik shartnomalari tuzish orqali ilmiy tadqiqot natijalarini eksport qilish imkoniyatlari yaratiladi.

Taklif etilayotgan mobil elektromexanik qurilmaning respublika xududida joriy etilishi qator agrotexnik tadbirlarni qisqa muddatlarda, kam xarajatlar xisobiga o'tkazish imkonini yaratadi. Bu o'z navbatida mavjud texnika va xom ash'yo resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Respublika qishloq xo'jaligiga sifat jixatidan yangi texnika va texnologiyalar kirib kelib, ishlab chiqarish samaradorligi ortishiga olib keladi.

XULOSA

“O‘simliklarga vegetatsiya davrida ishlov beruvchi elektromexanik qurilmaning parametrlarini asoslash” mavzusidagi texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi doirasida olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

1. O‘simliklarga ishlov beruvchi mobil elektromexanik qurilmalarni yaratish va joriy etish borasida rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o‘rgangan holda, respublikada qo‘llanilayotgan organik yonilg‘ida ishlaydigan texnika vositalarining energiyasamaradorlik ko‘rsatkichlarini past darajada ekanligi hamda yonilg‘i-moylash materiallari uchun xarajatlar yuqoriligini e‘tiborga olgan holda O‘zbekiston sharoitida qishloq xo‘jalik traktorlarini elektr yuritmaga o‘tkazishning dolzarbligi asoslandi.

2. Mobil elektromexanik qurilmaning komponovkasi va o‘xshash texnika vositalari bilan konstruktiv uyg‘unlik darajasi, ularning ish rejimlarini e‘tiborga olgan holda asoslandi. Natijada fermer xo‘jaliklari uchun umumlashgan servis xizmatlarini tashkil etish imkoniyatlari yaratildi.

3. Mobil elektromexanik qurilmaning (*0,4 klass*) markazlashgan va mobil energiya manbalaridan taminlangandagi energiyasamaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili bo‘yicha qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida ishlaydigan mobil elektr stansiyadan zaryadlash maqbulligi aniqlandi;

4. Mobil elektromexanik qurilmaning bir zaryadda ishlov bera oladigan maydon hajmining (g‘alla maydonlarini suspenziyalshda) quyidagi optimal parametrlari aniqlandi: texnika vositasining (ishchi eritma va AKB hisobiga) og‘irligi 420 kg, purkagichning ishchi tezligi 11 km/h, elektr motor quvvati 5,8 kVt. Ushbu parametrlarda bir zaryadda ishlov bera oladigan maydon hajmi 2,46 ha.

5. Mavjud texnologiyada yonilg‘i-moylash materiallarini tashish va saqlash masalalari mavjud bo‘lib, taklif etilayotgan qurilmada bunga xojat yo‘q. 2020 yil xolatiga 1 gektar maydonga purkab ishlov berish tannarxi o‘rtacha 30 ming so‘m atrofida bo‘lib taklif etilayotgan texnologiya qariyb 2,5 barobar arzon. Hozirda qo‘llanilayotgan traktor va purkagich narxi 358 mln.so‘m bo‘lgan holda, bir elektr traktor va purkagich narxi 49 mln.so‘m. Bir dona 0,9-1,2 klass traktori bajaradigan ishni 2 dona 0,4 klassli elektr traktor bajarishi hisobiga bu ko‘rsatkich quyidagicha bo‘ladi: $2 \times 49 = 98$ mln.so‘m. Natijada mobil elektromexanik qurilma xarajatlari 2-3 yilda o‘zini qoplaydi.

6. Mobil elektromexanik qurilmani joriy etilishi agrotexnik tadbirlarni kam xarajatlar hisobiga o‘tkazish imkonini yaratadi. Bu o‘z navbatida mavjud texnika va xom ash‘yo resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Respublika qishloq

xo'jaligiga sifat jixatidan yangi texnika va texnologiyalar kirib kelib, ishlab chiqarish samaradorligi ortishiga olib keladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Т.10.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ «ТАШКЕНТСКИЙ
ИНСТИТУТ ИНЖЕНЕРОВ ИРРИГАЦИИ И МЕХАНИЗАЦИИ
СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА»**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
«ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ИНЖЕНЕРОВ ИРРИГАЦИИ И
МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА»**

НУРАЛИЕВА НОДИРА АБДУКАМИЛОВНА

**«ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ ЭЛЕКТРОМЕХАНИЧЕСКОГО
УСТРОЙСТВА ПРИ ОБРАБОТКЕ РАСТЕНИЙ В ПЕРИОД
ВЕГЕТАЦИИ» (НА ПРИМЕРЕ РАСПЫЛЕНИЯ СУСПЕНЗИИ)**

05.05.07 – «Электротехнологии и электрооборудование в сельском хозяйстве»

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ (PhD)**

ТАШКЕНТ – 2022

Тема диссертации доктора философии по техническим наукам (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2021.4.PhD/T2396

Диссертация выполнена в Национальном исследовательском университете «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства».

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета по адресу (www.tiame.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (e-mail: admin@tiame.uz).

Научный руководитель:	Бокиев Абдулжолал Абдулхамитович кандидат технических наук, доцент
Официальные оппоненты:	Мухаммаднєв Ашираф доктор технических наук, профессор Саматов Нєзматжон Ахматович кандидат технических наук, доцент
Ведущая организация:	Центр сертификации и испытаний сельскохозяйственной техники и технологий при Министерстве сельского хозяйства Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится «16» февраля 2022 г. в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.10.01 при Национальном исследовательском университете «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства» (Адрес: 100000, г.Ташкент, ул. Кары Ниязий, 39. Тел.: (+99871) 237-09-45, факс: (+99871) 237-09-75, e-mail: admin@tiame.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Национальном исследовательском университете «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства» (регистрационный номер 205). Адрес: 100000, г. Ташкент, ул. Кары Ниязий, 39. Тел.: (+99871) 237-09-45, факс: (+99871) 237-09-75, e-mail: admin@tiame.uz).

Автореферат диссертации разослан «6» февраля 2022 года (протокол рассылки № 6307 «2» февраля 2022 г.).



Б.С.Мирзаев

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

У.Т. Кузиев

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, PhD, доцент

Х.М.Муратов

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Ускоренное внедрение в сельское хозяйство электротракторов и других ресурсосберегающих электротехнологических оборудований занимает одно из ведущих мест в мире. «Принимая во внимание исследования по переводу тракторов на электропривод известных компаний, производящих сельскохозяйственную технику в мировом масштабе»¹, с точки зрения энергоэффективности, созданные в результате этих исследований тракторы с электроприводом подлежат внедрению в практику. Большинство мобильных технических средств используемых в настоящее время в сельском хозяйстве работает на органическом топливе, в результате чего энергоэффективность проводимых агротехнических мероприятий имеют низкий уровень. В связи с этим использование тракторов с электрическим приводом в сельском хозяйстве считается имеющим большое значение из-за высокой стоимости производства, хранения и доставки горюче-смазочных материалов.

В мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на создание электрических тракторов с широким внедрением электростанций на базе возобновляемых источников энергии (солнечной, ветровой, гидравлической и др.). В связи с этим, учитывая, что, несмотря на создание новых технологий производства продуктов питания для населения мира, сельскохозяйственное производство еще долгое время будет оставаться основной базой для их производства и для этих целей потребуется большое количество сельскохозяйственной техники, необходимых для обеспечения проведения агротехнических мероприятий, отвечающих высоким экологическим требованиям, без ущерба для окружающей среды, особое внимание при этом необходимо уделять разработке, обоснованию параметров и режимов работы энергоэффективных мобильных технических средств с высокой экономической эффективностью.

В республике реализуются комплексные меры по разработке ресурсосберегающей техники и технологий, позволяющих эффективно использовать трудовые и энергетические ресурсы при выращивании сельскохозяйственной продукции, сократить потери сырья и энергии при выращивании и переработке продукции, достигнуты определенные результаты. В стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан на 2017-2021 годы, в частности, «...модернизация и ускоренное развитие сельского хозяйства, последовательное развитие производства сельскохозяйственной продукции, дальнейшее укрепление продовольственной безопасности, расширение производства экологически чистой продукции, значительное повышение экспортного потенциала аграрного сектора...»⁴ определены актуальные задачи. Важное значение в реализации этих задач, в частности, имеют вопросы системного развития работ по механизации сельского хозяйства

¹ <http://www.fao.org/faostat/#>; <https://www.zerno-ua.com>.

² Указ Президента Республики Узбекистан № ПП-4947 от 7 февраля 2017 года “О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан”.

